

# TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

“Tikuv buyumlarini konstruksiyalash  
va texnologiyasi” kafedra mudiri  
dots. M.A.Mansurova \_\_\_\_\_

«Tasdiqlayman»  
YEST va D fakulteti dekani  
dots. R.D.Akbarov \_\_\_\_\_  
« 18» fevral 2019 y.

## DIPLOM LOYIHA ISHIGA TOPSHIRIQ

**Talaba:** Mirxojieva Gulhayo Mirkomil qizi

**Ta'lif yo'naliishi:** Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (tikuv  
buyumlari)

**Fakultet:** Yengil sanoat texnologiyasi va dizayn

**Diplom loyiha ishi mavzusi:** Harakat imkoniyati cheklangan bolalar kiyimini ishlab  
chiqaradigan salon-atelyeni loyihalash

**Topshiriq** \_\_\_\_\_

(kafedra, korxona, ITI, DNI, tashabbusi bilan)

**Rahbar:** dots.M.A.Babadjanova.

**1. Diplom loyiha ishining qisqacha mazmuni.** Harakat imkoniyati cheklangan bolalar kiyimi  
uchun yangi dizayn loyihasini yaratish, konstruksiyasini qurish va modellashtirish, tikuv sexi  
texnologik jarayonini loyihalash, ekologik vazifasini yechish, texnika iqtisodiy ko'rsatkichlarni  
hisoblash

**2. Diplom loyiha ishining tarkibiy qismlari.**

**2.1. Asosiy qism** (texnologik, konstruktorlik, tadqiqot va boshqa) Muxandis-konstruktorlik  
qismida loyihalanayotgan model material paketini konfektionlash, konstruksiyalash usulini  
asoslab tanlash, dastlabki ma'lumotlarni tanlash, konstruktiv modellash, ishchi xujjalarni tuzish,  
material sarfini hisoblash.

Texnologik qismda asbob-uskuna va tikish usullarini tanlash, texnologik ketma ketlikni tuzish,  
oqim turi va parametrlarini tanlab texnologik sxemani tuzish, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni  
hisoblash, sex planini tuzish.

**Maslahatchi:** kat.o'q. Z.A.Abdullaxodjayeva.

**2.2. Qo'shimcha qismlar:**

Tikuv sexlarida mehnatni muhofaza qilish va ekologik masalalarni o'rghanish

Tikuv sexining biznes-rejasini ishlab chiqish.

**2.3. Hisob-tushuntirish matni tarkibi va qisqa mazmuni:**

Hisob tushuntirish matni badiiy-muxandislik, muxandis-konstruktorlik, texnologik, ekologiya va  
iqtisodiy qismlarini nazariy ma'lumotlari, hisoblash metodikasi va hisobi, chizmalar va  
rasmlardan tashkil topadi.

**2.4. Diplom loyiha ishi grafik qismining tarkibi va qisqa mazmuni**

(bajariladigan grafik materialning hajmi):

Diplom loyihasi grafik qismi asosiy model AK va MK chizmasi, asosiy model andazalari,  
asosiy model texnik rasmi va asosiy model qirqimlari, moslik, tartib grafiklari, sex plani, texnik-  
iqtisodiy ko'rsatkichlari

**3. Diplom loyiha ishi himoyasi**

**4. Topshiriq berilgan sana**

18.02.2019 yil

**5. Kafedra mudiri**

dots. M.A.Mansurova

**6. Rahbar**

dots.M.A.Babadjanova.

**7. Bajaruvchi**

Mirxojieva G.

## MUNDARIJA

### **Kirish.....**

#### **1.Tadqiqot qismi .....**

1.1. Harakat imkoniyati cheklangan bolalar reabilitatsion kiyimiga qo'yiladigon talablar

1.2. Harakat imkoniyati cheklangan bolalar reabilitatsion kiyimlari bo'yicha texnik takliflar

#### **1.3.Texnik topshiriq**

1.4. Harakat imkoniyati cheklangan bolalar reabilitatsion kiyimi tavsifi.....

1.5. Harakat imkoniyati cheklangan bolalar reabilitatsion kiyimi uchun konfektion karta.....

1.6. Harakat imkoniyati cheklangan bolalar reabilitatsion kiyimi asosiy qirqimlariga ishlov berish.....

#### **2. Muxandis-konstruktorlik qismi**

2.1. Harakat imkoniyati cheklangan bolalar reabilitatsion kiyimi uchun AK va MK chizmalarini chizish.....

2.2. Harakat imkoniyati cheklangan bolalar reabilitatsion kiyimi uchun andazalar komplektini ishlab chiqish .....

2.3. Reabilitatsion kiyim andazalarini ishlab chiqish.....

2.4. Harakat imkoniyati cheklangan bolalar reabilitatsion kiyimi uchun o'lchamlar tabelini tuzish .....

#### **3.Texnologik qism.....**

3.1. Tikuv buyumlarini ishlab chiqarish texnologik bog'liqligini tahlili.....

3.1.1. Asbob-uskuna va tikish usullarini tanlash va asoslash.....

3.1.2. Buyum tikish texnologik tartibini tuzish.....

3.2. Ishlab chiqarish oqimini va atelyeni loyixalash .....

3.2.1. Ishlab chiqarish oqimlarini loyihalash masalasini qoyish. ....

3.2.2. Ishlab chiqarish oqimini tashkiliy-texnologik yechimini va dastlabki ma'lumotlarni tuzish.....
<b>4. Ekologik qism.....</b>
<b>5. Iqtisodiy qism.....</b>
<b>Xulosa.....</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanish yo'lini tanlab olinishi bugungi kunda yuqori sifatli tikuv buyumlarini loyihalashtirib ularni ishlab chiqarishning zamonaviy islohotlariga ko'ra yo'naltirib mutaxassislikka oid murakkab masalalarni yechishga qodir. Qonunlarni mukammal bilish muhim ahamiyatga ega. Shunga binoan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash muhim vazifadir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “ O'zbekistonda to'qimachilik va yengil sanoat rivojlanishi uchun katta miqdorda xomashyo resurslari mayjud, ushbu resurslardan mos ravishda foydalanib mahsulot ishlab chiqarish, avvalo ichki bozorimizni to'ldirib, so'ngra sifatli va raqobatbardosh mahsulot, buyumlar bilan jahon bozoriga chiqish, respublikamiz iqtisodiyotining yetakchi yo'nalishlaridan biridir”.

Ishlab chiqarishni tashkiliy-texnik jihatdan tayyorlashning dastlabki bosqichi kiyimni modelga moslab yaratish hisoblanadi. Sanoat korxonalari oldida turgan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: uskunalarni zamonaviylashtirish, yuqori sifatli, chiroyli kiyim assortimentini ko'paytirish, tezda moslanuvchi yangi oqim liniyalarini qurishni, tikuvchilik tarmog'ini jadal rivojlantirish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdir.

Respublikamizda keng turdag'i sifatli to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilishni tashkil etish, uning ishlab chiqarilishini mahalliy lashtirishni chuqurlashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarining eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabr PF-5270-sonli farmonida 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasida" belgilangan vazifalarga muvofiq, nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-

quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari etib hisoblash kabi vazifalar qo‘yilgan. Shu jumladan, tibbiy-mehnat ekspertizasi va nogironlikni belgilashning shaffof, zamonaviy uslub va mezonlarini joriy etish, nogironligi bo‘lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish darajasi va sifatini, shu jumladan diagnostika, davolash va reabilitatsiyaning zamonaviy uslublarini qo‘llagan holda yuqori texnologiyali ixtisoslashgan tibbiy va ijtimoiy yordamdan foydalanish imkoniyatini kengaytirish orqali oshirish belgilab berilgan

Jamiyat tomonidan nogironligi bo‘lgan bolalar hayotining barcha sohalari e’tibor va kuzatuvga muhtojdir. Mazkur kategoriya bo‘yicha ijtimoiy himoya muammolari yechimi uchun ularni ergonomik, funksional va estetik kiyim bilan ta’minlash katta ahamiyatga ega.

Bolalik yoshida harakat rivojlanishining buzilishi tufayli nogironlikka olib keluvchi butun dunyoda eng ko‘p tarqalgan kasallikkardan biri harakat imkoniyati cheklangan kasallikdir.

Hozirgi vaqtida harakat imkoniyati cheklangan bolalar oddiy maishiy kiyim kiyadilar, bu nafaqat qomat nuqsonlarini bekitadi, balki bolalar harakatlarini qiyinlashtirib, ularning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda harakat imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus kiyimlar ishlab chiqarish tizimi mavjud emas. Bunday bolalar tana qomati tuzilishi tipaviy qomatlardan farqli og‘ishlarga ega bo‘lib, ommaviy ishlab chiqariladigan kiyimlar ushbu kategoriyadagi iste’molchilar uchun yaroqsizdir.

Harakat imkoniyati cheklangan bolalarda (HICH) qomat og‘ishidan tashqari umurtqa qiyshayishi, tana deformatsiyasi, qo‘l-oyoqlar deformatsiyasi uchraydi. Ko‘pgina chet el olimlari tomonidan gavda tuzilishi bo‘yicha assimmetrik qomat nuqsonlarini paydo bo‘lish qonuniyatları aniqlangan bo‘lib, ular uchun kiyimni adaptiv konstruksiyalash uslublari ishlab chiqilgan. Biroq O‘zbekistonda bu turdagи konstruksiyalash uslublari ko‘rib chiqilmagan.

Harakat imkoniyati cheklangan nogironligi bo‘lgan bolalar kiyimlariga talablar kasallik xususiyatlarini hisobga olishi zarur bo‘lib, kiyim detallari

konstruksiyasini ergonomikligini asoslaydi. Bunday bolalar uchun adaptatsion buyumlar yaratish bosqichida bola garderobi bo‘yicha ota-onalar va mutaxassis-vrachlar fikrini aniqlash muhim hisoblanadi.

Tadqiqot ishlari 2018-2019 yillarda Toshkent shahridagi U.Q.Qurbonov nomidagi Respublika bolalar ruhiy-asab kasalxonasida amalga oshirildi. Tadqiqotlar kuzatuv-so‘rovnama va intervyu shaklida olib borildi. So‘rovnomada 200 kishi ishtirok etdi. Bular asosan o‘g‘il va qiz bolalar ota-onalari bo‘lib, bolalarning yoshi 2,5 dan to 12 yoshgachadir.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, serebral paralichi kasalligi bo‘lgan bolalar ucnun reabilitasion kiyimga bo‘lgan talab hamda ota-onalarning bola uchun adaptatsion kiyim sotib olishga qiziqishlari yuqoridir. Bunday holat yana bir bora maxsus kiyim turlarini, trenajer-kiyim, serebral paralichi kasalligi bo‘lgan bolalar uchun reabilitatsiya kiyimlarini ishlab chiqish va sanoatda ishlab chiqarilishi masalalariga differential yondashuvni dolzarbligini ko‘rsatdi.

Serebral paralichi kasalligi bo‘lgan bolalar garderobida shuningdek ota-onalarning kiyim turi, ularning tolaviy tarkibi, kiyimda reabilitatsiya elementlarini qo‘llash bo‘yicha qiziqish afzalliklari aniqlandi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar davolash gimnastikasi uchun maxsus yo‘naltirilgan reabilitatsiya elementli kostyumni ishlab chiqish dolzarbligini ko‘rsatdi.

Usbu diplom loyihasida Serebral paralichi kasalligi bo‘lgan bolalar uchun reabilitatsiya kostyumi eskiz loyihasi ishlab chiqildi. Uning sanoat namunasi va konstruktorlik hujjatlari tayyorlandi.

## **1.Tadqiqot qismi**

### **1.1. Harakati cheklangan bolalar kiyimiga qo'yiladigon talablar**

Harakat imkoniyati cheklangan bolalar (HICh) kiyimiga qo'yiladigan asosiy talablarga: funksional, ijtimoiy, estetik, ergonomik va ekspluatatsion talablar kiradi. Barcha talablarni qoniqtirishda HICh bolalar uchun kiyimlarga qo'llanadigan materiallar asosiy rolni o'ynaydi.

HICh bolalar uchun kiyimlar mosligiga materiallar xossalarini ta'siri funksional talablari bo'yicha zamonaviy hayot tarzi va tashqi muhit sharoitlariga mosligi, ob-havo va boshqa atrof muhitning ta'sirlariga to'g'ri kelishi, psixofiziologik xususiyatlarga mos kelishi, ya'ni rang va rang yechimlari mutanosibligini to'g'ri tanlash – nogiron-bolalarda ijobiy his-tuyg'ularni keltirishi bilan ifodalanadi.

HICh bolalar uchun kiyimga va materiallarga qo'yiladigan ijtimoiy va estetik talablari bir-biriga mosdir. Ularni adaptatsion effektga intilish umumlashtiradi, ular nogironga o'zini jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida o'zini his qilishi, kiyimi va badiiy didi bilan moda va uslubga rioya qila olishini namoyon qilishga imkon beradi. Bu msalada materialarning fakturasi va rang yechimi katta ahamiyatga ega.

HICh bolalar uchun material tanlashda o'ziga hos murakkabliklar bor bo'lib, ular ergonomik va ekspluatatsion talablarni qoniqtirishi kerak, ya'ni birinchidan, tabiiy tarkibga ega bo'lishi, ikkinchidan, yuklamalarga va ishqalanishga chidamlilik, g'ijimlanmaslik kabi ekspluatatsion talablarga javob berishi zarur. Hayvon yoki o'simlik tolalaridan iborat tabiiy xomashyodan elastik materiallarni qo'llash afzalroqdir. So'nggi vaqtarda aralash va sun'iy tolali materiallar keng qo'llanilmoqda, bular g'ijimlanmaslik, chidamlilik, yaxshi gigroskopik va gigiyenik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Bolalarda tana yuzasi va massasi mutanosibligi kattalarga nisbatan ko'proq bo'lib, ularda issiqlik ajralishi ko'proqdir. Bundan tashqari o'tish yoshida bolalarda asosiy modda almashinushi kattalarga nisbatan 1.5 barobarga ko'proqdir. Shuning

uchun normal haroratni bir xil ushlab turish va termoregulyatsiyani ta'minlash uchun bolalarda ko'p issiqlik ajraladi. Qisman bu organizmning fiziologik o'zgarishlari va o'sish davrida intensiv metabolizm hisobiga ro'y beradi. bunday sharoitlarda kiyimning issiqlikdan himoyalovchi xususiyatlari roli ortadi.

Bog'cha va kichik mакtab yoshidagi bolalar uchun xarakterli bo'lgan termoregulyatsiya jarayonlarini tugallanmaganligibolalar sog'lig'iga negativ ta'sir ko'rsatadi, chunki ularning organizmi ob-havo sharoitlari o'zgarishiga tez reaksiya qilishga moslashmagan. Shuning uchun organizm va tashqi muhit o'rtasida issiqlik almashinuvini (issiqlik qabul qilish yoki chiqarishni) turli yo'llar bilan tartibga solish zarurati tug'iladi. Ob-havo sharoitlariga bog'liq bo'limgan holda bolalar sport, maishiy kiyimining ekspluatatsiyasida yuqori namlik o'tkazuvchi xossali issiqlik saqlovchi kiyimlarni yaratish muhimdir. Bola organizmi issiqlik holatini materialning turi, tolaviy tarkibi, tuzilishi, mato paketidagi havo qatlami kattaligi, kiyim konstruksiyasining ko'rinishini o'zgartirish (morphologik transformatsiya bilan) bilan tartibga solish mumkin.

Materiallarni tanlashda shuningdek iqlim sharoitlarini hisobga olish kerak, chunki O'zbekiston quruq issiqliki, davomli yozi bilan farqlanib, yozgi havo harorati 40-45°C ni tashkil etadi. HICh bolalar kiyim paketi bunday havoda bolani oftob urishi, intensiv terlash vaqizib ketishdan himoyalaydi, chunki ortiqcha issiqlik yo'qotishdan termoregulyatsiya jarayonlarini buzilishi kuzatiladi. Mavsumiy va qishki kiyimlarni tayyorlash uchun kostyumbop va plashbop materiallar, tabiiy va sun'iy charmlar qo'llanadi.

To'g'ri tanlangan mato teriga ishqalanishni oldini oladi va bir vaqtida yetarli zichlikda HICh bolalarda qon aylanishini kuchaytiradi, chunki ular ko'p vaqtlarini o'tirgan holatda o'tkazadilar. Tavsiya etilgan zichlik matolarda 30-130- g/m<sup>2</sup> dan kam bo'lmasiligi, trikotaj polotnolarida esa 100-200g/m<sup>2</sup> bo'lishi kerak.

Materiallarning psixofiziologik xususiyatlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, bunda matoning rangi va rang yechimi munosabatlari bosh o'rinni egallaydi. Bu nogironlar uchun kiyim loyihalashda odamning emotsiyal holatini to'g'rilab

psixologik qulayligini ta'minlash imkonini beradi. Rang munosabatlarini uyg'unlashtirish sohasidagi tadqiqotlar asosida bolaning emotsiyal va psixofiziologik ta'sirini hisobga olgan holda DSP bilan kasallangan bolalarga rangni ta'siri bo'yicha kiyimda rang munosabatlarini qo'llash tavsiyalari aniqlangan:

- sidirg'a uyg'unlik;
- yaqin ranglar uyg'unligi;
- yaqin-kontrast va kontrast ranglar uyg'unligi. Shunday qilib, HICh bolalar uchun kiyim ishlab chiqish va material tanlash maxsus bilimlarga asoslangan bo'lishi va qulay hayot faoliyati hamda har bir nogironning jismoniy xususiyatlarini hisobga olishishart. Oxirgi mahsulot nafaqat qulay, balki zamonaviy moda tendensiyalariga, hayot uslubiga mos bo'lishi, qulay psixologik atmosferani yaratishi kerak. Hal qiluvchi rolni bunda materiallar va ularni xossalari o'ynaydi.

Reabilitatsion kiyimni davolovchi kiyimdan muhimfarqi shundaki, uni uzoqroq vaqt qo'llash uchun yaroqliligidir, shuning uchun bunday kiyimni loyihalashda ergonomik talablar alohida muhimdir. Nogiron bolalar uchun reabilitatsiya kiyimi avvalo qulay va shinam bo'lishi, bola harakatini cheklamasligi, uning kayfiyati va ahvolini yaxshilashga qaratilishi zarur.

Giperkinetik sindromli nogiron bolalarga qo'l-oyoqlari egilish-bukilish kontrakturali, umurtqa qiyshayishi bo'lganda reabilitatsion element sifatida kiyimga og'irlashtirgich kiritilishi maqsadga muvofiqli. Buning uchun kostyumda elementlar joylashuvini, ularning massasini aniqlash kerak.

Statika va dinamikadagi antropometrik qulaylikni ta'minlashga alohida e'tiborni qaratish lozim. Kiyim bolaning tanasiga bosim o'tkazmasligi kerak, faqatgina bu bosim terapeutik samarani ta'minlashga qaratilgan hollardan tashqari, choclar soni tana qismlarini ishqalanishdan asrash maqsadidaminimal darajada bo'lmog'i kerak.

## **1.2.Harakat imkoniyati cheklangan bolalar reabilitatsion kiyimlari bo'yicha texnik takliflar**

Harakat imkoniyati cheklangan bolalarni tana tuzilishi, ularni turmush tarzi sog'lom bolalarnikidan keskin farq qiladi. Shunug uchun ham ommaviy ishlab chiqarilayotgan kiyimlar harakat imkoniyati cheklangan bolalarga noqulayliklar tug'diradi. Shu bilan birga bolani o'sishini sekinlashtiradi sog'lig'iga ham ta'sir ko'rsatadi. HICh bolalar har tomonlama qulay, ergonomik talablarga jovob beruvchi, zamonaviy, estetik tomondan ham qulay kiyim- boshga muhtoj. Nogiron bolalarni yashash sharoitini yaxshilaydigan maxsus kiyimlarni ishlab chiqarish zarur.

Reabilitatsion kiyim (davolash-korreksiyalovchi kostyumlari) va reabilitatsiya moslamalari (ortopedik korsetlar, ortezi va h.k.) qisqa muddatli ekspluatatsiyaga mo'ljallangan. Ular bola organizmiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun vrach maslahatidan so'ng bevosita uning nazoratida qo'llash kerak. Ularni qo'llash dozalangan holda bo'lishi zarur.

Shifokor va ota – onalar bilan suhbatdan ma'lum bo'ldiki, bolalarni sog'lomlashtirish markaziga bolalarni mashq o'tkazish uchun maxsus kiyimlar yetishmaydi, bori ham talabga javob bermaydi. (1 va 2-rasm)



1-rasm. Reabilitasiya nimchasi



## 2 rasm. Reabilitasjion kombinezon komplekti

HICh bolalarni kiyim orqali reabilitatsiya qilish usullari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: reabilitatsion kiyimni qo‘llash, reabilitatsiya elementlar va reabilitatsiya moslamalariga ega kiyimni qo‘llash.

Hozirda Respublikamizda bolalar uchun maxsus mashq kiyimini ishlab chiqarish korxonalari yo`qligi sababli, ota-onalar bolalari uchun Rossiya, Hindiston mamlakatlaridan buyurtma tarzida olib kelib foydalanishmoqda. Ammo, mashq kopstyumlarini juda ham qimmatligisababli hamma ota-ona ham farzandlariga olib bera olmaydi.(3-rasm)

Harakat imkoniyati cheklangan bolalar uchun tayyorlangan kiyimlarga maxsus og’irlilikdagi toshlar joylashtiriladi. Toshlar og’irligi vrach maslahati bilan tafsiya etiladi.



a) Gravistat



b) Atlant



c) Adeli

3 rasm. Xorijda ishlab chiqarilgan Reabilitasion kombinezonlar

### **1.3.Texnik topshiriq**

Texnik topshiriq – kiyimning asosiy vazifasi, texnik tavsifi, sifat ko'rsatkichlari, ishlab chiqilgan buyumga qo'yiladigan texnik-iqtisodiy talablar, konstruktorlik hujjatlarining bosqichlari, ularning tarkibi va kiyimga qo'yiladigan maxsus talablarni belgilovchi konstruktorlik hujjati.

Loyihalanayotgan obyekt nomi: *Harakat imkoniyati cheklangan bolalar reabilitatsion kombinezoni;*

Mavsumi: *Doimiy;*

Loyihalanayotgan obyekt vazifasi: Kundalik jismoniy mashg'ulotlarda kiyishga mo'ljallangan

Tananing antropometrik xarakteristikasi: *Bo'y - TI - 116-60-60;*

Material nomi: 1. *Djinsi gazlamasi*

2.*Ribana trikotaj polotnosi*

### **1.4.Harakat imkoniyati cheklangan bolalar reabilitatsion kiyimi tavsifi**

Bu model harakat imkoniyati cheklangan bolalar reabilitatsion kiyimi bo'lib, kundalik jismoniy mashg'ulotlarda kiyishga mo'ljallangan. Kombinzon paxta tolali tabiiy mato djins matosidan tikilgan. silueti to'g'ri.

Kombinzon old bo'lagi ko'krak qismida va shim son qismida og'irlashtiruvchi yuklar uchun qoplama qopqoqli cho'ntaklar joylashgan. Cho'ntaklar og'zi "velkro" tasmasi yordamida mahkamlanadi.

Old bo'lak o'rta qirqimida molniya tasmali taqilma mavjud.

Ort bo'lakda o'rta qirqimga perpendikulyar qilib og'irlashtiruvchi yuklar uchun ikkita qopqoqli qoplama cho'ntaklar joylashgan. Cho'ntaklar og'zi "velkro" tasmasi yordamida mahkamlanadi.

Kombinzon bel qismiga elastik tasma bilan ishlov berilgan.

Yeng o'tqazma uzun bo'lib, tirsakdan yuqori qismida og'irlashtiruvchi yuklar uchun qopqoqli qoplama cho'ntak joylashgan. Cho'ntaklar og'zi "velkro" tasmasi

yordamida mahkamlanadi. Yeng bilak qismiga “yeng bilak cho’ntaklari”ni ushlab turishi uchun yeng uchiga ikkitadan shlyofkalar tikilgan.

Old va ort bo’lak pastki qismi pochasida og’irlashtiruvchi yuklar uchun qoplama cho’ntaklar joylashgan bo’lib, cho’ntaklar kengligi 3 qismga bo’lingan. Cho’ntaklar og’zi “velkro” tasmasi yordamida mahkamlanadi.

Bo’yin o’mizi va shim pochasiga ribana bilan ishlov berilgan. Buyumning tikish choklari ustidan bostirma bezak baxyaqator yurgazilgan

Og’irlashtiruvchi yuklar metall plastinkalari 135g, 155g va 175g og’irlikda tayyorlanadi. Plastinkalar cho’ntak o’lchamlariga mos va trenirovka davrida bolaga halaqit bermaydi. Plastinkalar og’irligi va soni vrach va nevropatolog maslahatiga ko’ra tanlanadi.

. Bu kombinezon 5-6 yoshdagi giperkinez kasalligi bo’lgan bolalar uchun mo’ljallangan va 52-64 razmerlar, 104-122 bo’ylarga tavsiya etiladi.

Mashq kostyumi uchun metall plastinkalarning og’irligi shifokorlar tavsiyasiga bola tanasining umumiy vaznidan proporsional ravishda belgilanadi. Masalan, 5-6 yoshli bolalar vazni o’rtacha 17,5 - 20 kg bo’lganda , har bir cho’ntak uchun 155 gr og’ilikdagi yuklr solinishi kerak. Metall plastinkalarning umumiy vazni bola tanasi qismlari vaznining 30% tashkil etishi kerak. Tosh og’irligini tanlashda asosiy shart – toshlar bolaning muvozanatini to‘g’rilashi kerak, ya’ni og’irliklar markazi umurtqa ustiga surilishi kerak. Giperkinez tashxisi bor bolalarda umurtqa pog’onasining qiyshiqlighi kuzatiladi va shu sababli, bolalar o’ng yoki chap tarafga og’ishi kuzatiladi. Shu sababli, shifokorlar qaysi tarafga ko’proq og’ish kuzatilsa, shu tarafga qo’shimcha metall plastinkalarni joylab mashqдан оlib borilganda bola tanasining og’ish foizi kamayadi. Shuning uchun metall plastinkalar og’irligi har bir bolaga mashqdan avval individual tarzda tanlanadi.



2019-7-11 10:13

Model eskizi

3.2. Harakat imkoniyati cheklangan bolalar rehabilitatsion kiyimi eskizi

## **1.5. Harakat imkoniyati cheklangan bolalar reabilitatsion kiyimi uchun konfeksiyon karta**

### **Material tanlash va asoslash**

Harakat imkoniyati cheklangan bolalar uchun material tanlashda o‘ziga hos murakkabliklar bor bo‘lib, ular ergonomik va ekspluatatsion talablarni qoniqtirishi kerak, ya’ni birinchidan, tabiiy tarkibga ega bo‘lishi, ikkinchidan, yuklamalarga va ishqalanishga chidamlilik, g‘ijimlanmaslik kabi ekspluatatsion talablarga javob berishi zarur. Hayvon yoki o‘simlik tolalaridan iborat tabiiy xomashyodan elastik materiallarni qo‘llash afzalroqdir. So‘nggi vaqtarda aralash va sun’iy tolali materiallar keng qo‘llanilmoqda, bular g‘ijimlanmaslik, chidamlilik, yaxshi gigroskopik va gigiyenik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Materiallarni harakat imkoniyati cheklangan bolalar kiyimiga qo‘yiladigan talablarga mosligi bo‘yicha va kompression xususiyatlar berish uchun ularning tarkibiga boshqa tolalar masalan, laykra, elastan, spandeks qo‘shiladi. Bunda kiyimga elastiklik berilib, cho‘ziluvchanligi ortadi va g‘ijimlanishi kamayadi, qulayligi ham oshadi. Aynan laykrali elastik materiallar modelning elastikligini va gigiyenik mosligini ta’minlaydi.

Materiallarni tanlashda shuningdek iqlim sharoitlarini hisobga olish kerak, chunki O‘zbekiston quruq issiq iqlimi, davomli yozi bilan farqlanib, yozgi havo harorati  $40-45^{\circ}\text{C}$  ni tashkil etadi. Harakat imkoniyati cheklangan bolalar kiyim paketi bunday havoda bolani oftob urishi, intensiv terlash vaqizib ketishdan himoyalaydi, chunki ortiqcha issiqlik yo‘qotishdan termoregulyatsiya jarayonlarini buzilishi kuzatiladi. Mavsumiy va qishki kiyimlarni tayyorlash uchun kostyumbop va plashbop materiallar, tabiiy va sun’iy charmlar qo‘llanadi.

Elastik materiallar harakat imkoniyati cheklangan bolalar kiyimi tayyorlash uchun asosiy hisoblanadi. Ular har qanday materialga elastik tola laykra qo‘shib tayyorlangan alohida turi hisoblanadi. Asosiy material sifatida atlas, denim, trikotaj polotno, jakkard va boshqalar tanlanib, ularga laykra qo‘shilishi mumkin. Bunday materiallar tarkibida sintetik tolalar foizi 1dan 30% gacha bo‘lishi mumkin, bu kerakli korreksiyaga bog‘liqdir.

Harakat imkoniyati cheklangan bolalar kiyimi uchun paxta tolali tabiiy mato eng ko‘p tarqalgan hisoblanadi. Uning eng asosiy muhim xossasi – gigroskopikligi bo‘lib,

namlik(ter)ni juda yaxshi shimadi va teriga nafas olish imkonini beradi. bunday materiallarga misol qilib kulirka, interlok, paxmoq, flanel, ribana, velyur, poplin, velvet kabilarni keltirish mumkin. Zig‘ir tolalar qo‘llangan matolar (batist, muslin, tik, serpyanka va boshqalar) paxta tolaliga nisbatan Harakat imkoniyati cheklangan bolalar kiyimiga qo‘yiladigan talablarning ko‘prog‘ini qoniqtiradi, chunki gigroskopiklik, havo o‘tkazuvchanlik, yemirilishga va ishqalanishga chidamliligi ko‘rsatqichlari yuqoriroq hisoblanadi.

To‘g‘ri tanlangan mato teriga ishqalanishni oldini oladi va bir vaqtida yetarli zichlikda harakat imkoniyati cheklangan bolalar qon aylanishini kuchaytiradi, chunki ular ko‘p vaqtlarini o‘tirgan holatda o‘tkazadilar.

### **1.5-Jadval.**

#### **Djins gazlamasi uchun material tavsifi**

Material nomi	Tola tarkibi %		10 smda zichligi		O’rilishi	Eni, sm	Yuza zichligi, Gr/m <sup>2</sup>	Kirishuv hanlik %
	Tanda ipi	Arqoq ipi	Tanda ipi	Arqoq ipi				
Djinsi	Paxta tolali	Paxta tolali	260	220	cap-жа	150	306,3	4 %


### **1.5-Jadval.**

#### **Trikotaj polotnosi uchun material tavsifi**

Material nomi	Tola tarkibi%	O’rilishi	Yuza zichligi, Gr/m <sup>2</sup>	Qalinligi	Cho’ziluv-chanligi	Eni sm
Ribana	8%laykra, 92%paxta	Xalqasimon	466,6	1,33	60-80	120

## *Konfekcion karta*

	<b>Nomlanishi</b>	<b>Artikuli</b>	<b>Namuna</b>
	<b>Djins</b>	<b>3233C</b>	
	<b>Ribana</b>		
	<b>Ip</b>	<b>LH 44</b>	
	<b>Molniya tasma</b>	<b>LH 44</b>	
	<b>Maxsus ip</b>		



DL 001.19				
O'zg	List	Xujjat №	Imzo	Sana
Chizdi	Mirxojiyeva G			
Raxbar	Babadjanova M			
Tekshirdi	Abdullahoxodjayeva Z	Q.B.AX.		
Tasdiq	Mansurova N	D.N.M.		

**Kombinzon AK va MK chizmasi**

Adabiyot	Massa	Masshtabi


List:1      Listlar:2

TTESI TBKT kaf  
11-15 guruh

Jins matosi, ribana

1.6 Harakat imkoniyati cheklangan bolalar reabilitatsion kiyimi asosiy qirqimlariga ishlov berish

2019-7-11 10:14



AK va MK chizma

List

## **2. Muxandis-konstrukturlik qismi**

### **2.1. Harakat imkoniyati cheklangan bolalar reabilitatsion kiyimi uchun AK va MK chizmalarini chizish**

Harakat imkoniyati cheklangan bolalarga kiyim loyihalash va konstruksiyasini qurish sog'lom bolalar uchun konstruksiya qurishdan ko'ra birmuncha qiyin. Nogironligi bo'lgan bolalarga kiyimlarni loyihalash dizayner va konstruktorlardan alohida e'tibor talab qiladi. Konstruksiyalashdan maqsad bola tanasini shakliga mos keluvchi tekis materialdan hajmiy shaklni hosil qilishdir. Konstruksiya chizmasini qurishda kiyim hajmiy shaklini tekislikda kiyim detallari yoyilmasini qurish vazifasi bajariladi. Kiyim yangi na'munalarini yaratishda turli xil yoyilmalarni qurish usullaridan foydalaniladi.

Hozirgi vaqtida bichish sistemasining o'nlab usullari qo'llaniladi. Yaqin kunlargacha mutaxassislar «Ателье» jurnali orqali tanilgan «Мюллер и сын» va fransuz Lin Jak uslublaridan keng foydalanib kelishgan. Unifred Aldrich kitobi ingliz metodikasi bilan tanishtiradi. Ingliz uslubi bir necha yillardan buyon butun dunyo professionallari auditoriyasida avtoritetini saqlab kelmoqda. Buyuk Britaniyada 20 ta o'lcham ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Bu uslubning qulayligi shundaki, konstruktiv nuqtalar raqamlar ketma-ketligi bo'yicha aniqlanadi, ya'ni 0 dan boshlanib, raqamlar o'sish ketma-ketligida konstruksiya qurib boriladi.

Ingliz uslubida har bir assortimentdagи kiyim konstruktsiyasi uchun o'lchamlar va qo'shimchalar keltirilgan. Buyum razmeri kattalashgan sayin qo'shimchalar qiymatining qanchaga o'zgarishi, hisob-proportsional usulda konstruktsiyani o'zgartirish qiymatlari keng yoritilgan.

Ingliz uslubida qurilgan konstruktsiya qomatda yaxshi o'rashadi. Bu uslubda barcha assortimentlar uchun yelkali, bel kiyimlari konstruktsiyalarini qurish keng yoritib berilgan.

### 2.1.1-Jadval.

#### Tipavoy qomat o'lchamlari

Nº	O'lchamlar nomi	Shartli belgisi	Qiymati, sm	Qo'shimchalar qiymati
1	Ko'krak aylanasi III	Ог 3	59	3
2	Orqa kenglik	IIIс	24.4	Пшс3,5
3	Bo`yin aylanasi	Ош	28	-
4	Yelka kengligi	Шп	8.2	-
5	Ort o`miz chuqurligi	Впрз	14.4	Пвпрз4
6	Ort belgacha uzunlik	Дтс	26.6	-
7	Beldan bo`ksagacha bo`lgan uzunlik	Дтб	13.2	-
8	Yeng uzunligi	Дрзап	39.5	-
9	Bilak aylanasi	Озап	13.5	-
10	Beldan o'tirish chizig'icha bo`lgan uzunlik	Дс	19.2	-
11	Oyoq uzunligi	Дн	48.5	-
12	Bo`ksa aylanasi	Об	62	Поб2

### 2.1.2-Jadval.

#### AK qurish uchun konstruktiv qo'shimchalar

Nº	O'lchamlar nomi	Shartli belgisi	Qiymati,sm	Qo'shimchalar qiymati
1	Orqa kenglik	IIIс	3.5	Пшс
2	Ort o`miz chuqurligi	Впрз	4	Пвпрз
3	Bo`ksa aylanasi	Об	2	Поб

## 2.1.3-Jadval.

### 4.3. AK qurish hisobi

<b>№</b>	<b>Konstruksiya bo'lagi</b>	<b>Formula, hisob</b>	<b>Qiymati, sm</b>
1.	0-1	Дтс + 3sm	62
2.	1-2	Дтб	13,2
3.	0-3	$\frac{1}{4} Oг_3 + Псг_3$ ; Псг <sub>3</sub> qo'shimcha : - 80-116 sm bo'y uchun Псг <sub>3</sub> = 6 sm, • 122-164 sm bo'y uchun, Псг <sub>3</sub> = 6,5 sm. 3 Nuqtadan pastga vertikal chiziq o'tkaziladi 4 va 5 nuqta topiladi.	17
4.	0-6	2 sm	2
5.	6-7	Впрз + Пвпрз ; Пвпрз qo'shimcha: 80-116 sm bo'y uchun Пвпрз = 4 sm, - 122-164 sm bo'y uchun Пвпрз = 4,5 sm. 7 nuqtadan o'ng tomonga gorizontal chiziq o'tkaziladi va 8 nuqta topiladi	19
6.	6-9	$\frac{1}{2}/6-7/$ ; nuqtalarni o'rtasini topib o'ng tomonga gorizontal chiziq o'tkaziladi va 9 nuqta topiladi.	9
7.	6-10	$\frac{1}{4}$ Впрз – 2 sm; 10nuqtadan o'ngga gorizontal chiziq o'tkaziladi..	3
8.	0-11	$1/5$ Ош + 0,8 sm; orqa bo'yin o'mizi kengligi chiziladi	6
9.	7-12	$\frac{1}{2}$ Шс + Пшс; Пшс qo'shimcha: - 80-116 sm bo'y uchun Пшс = 3,5 sm, - 122 -164 sm bo'y uchun П шс = 4 sm. 12nuqtadan yuqoriga vertikal chiziq belgilanadi va 13- 14 nuqta topiladi	15
10.	14-15	80-116 sm bo'y uchun (1,25 sm ) 122-164 sm bo'y uchun (1,5 sm) . 11va 15 belgilanadi. Orqa bo'lak chizmasida 15, 13, 8. Nuqta topiladi	2,5
11.	0-16	$1/5$ Ош + 0,5 sm; bo'yin o'mizi chuqurligi topildi	6
12.	13-17	0,6 sm 80-116 sm bo'y uchun 0,6 sm 122-164 sm bo'y uchun 0,9 sm Gorizonta chiziqa parallel bo'lgan 10chi nuqtadan to'g'ri chiziq o'tqazing	1

13.	11-18	11-18 nuqtalarini birlashtrib old bo'lakining yelka chizig'ini o'tqazing 18,17,8 nuqtalaridan sxemada ko'rsatilganidek o'miz chizig'ini o'tqazing	11
14.	0-1	Asos kanstruksiyada 6-7 nuqtalarni o'lchab qo'ying 1 nuqtadan chapga gorizantal chiziq o'tqazing.	30
15.	0-2	Qo'1 uzunligi 4sm 2 nuqtadan garizantal chiziq o'tqazing	36
16.	0-3	Ort bo'lakning yeng o'mizi uzunligi asos kanstruksiyasining 15,13,8 o'lchamlari.	17
17.	2-4	3-4 nuqtalarini birlashtring 0.3 kesimini 5ta bo'lakka bo'ling 5,6,7,8 nuqtalarini belgilab yeng akatini chizing 0.3 sm ga bukiladi. -7 chi nuqtadan 8chi nuqtaga 1sm qo'shamiz. -80-116, 1sm 122-164 1.25sm qo'shiladi.	16,5
18.	0-1	1chi nuqtadan chapga gorizantal qadam chizig'ini chizish	24,5
19.	1-2	2chi nuqtadan chapga gorizantal qadam chizig'ini o'tqaziladi.	47,5
20.	1-3	3chi nuqtadan chapga tizza gorizantal chiziqnini o'tqazish.	22,5
21.	1-4	4chi nuqtadan tepaga vertical nuqtadan o'tqaziladi 5chi nuqtani belgilash.	19,5
22.	5-6	1sm	1
23.	4-7	1/4/4-5/.	5
24.	4-8	6-7 kesmasini 8chi nuqta bilan qiya chiziq orqali nuqtadan chiqan bisiktrisidan o'tqazibbirlashtring	5
25.	1-9	9nuqtadan pastga chiziq chizib 10-11 nuqtasidan belgilang.	9
26.	11-12	l/3 /1-4/ + 1 sm.	5,5
27.	11-13	11-12chi nuqtalaridan belgilang.	5,5
28.	10-15	Tizza chizig'ida 14chi nuqtalarni belgilang 13-15 to'gri chiziqdida birlashtrib qadam chizig'ini belgilash. -8,15 qiya chiziq bilan 0.6smga bukib birlashtring.	7,5
29.	6-16	16nuqtadan tepaga 2.5 sm uzunlikda vertical chiziq o'tkaziladi va 17chi nuqtadan belgilanadi.	3
30.	0-18	17-18 nuqtalarini birlashtring..	2
31.	4-19	1/2/4-5/.	12

32.	8-20	/4-8/ - 1 sm (0,5 sm).	1,5
33.	20-21	17-19 kesmasini 1nuqta bilan qiya chiziq orqali birlashtiring 4nuqtalarini bisiktrisasida o'tqazing bisiktrisa uzunligi 4 sm.	1
34.	12-22	23nuqtani belgilab 18,22 nuqtalarni birlashtring.	1
35.	13-24	1sm	1
36.	15-25	24-25 nuqtalarini to'g'ri chiziq bilan birlashtrib qadam chizig'ining belgilash 21-25 nuqtalarini qiya chiziq bilan 1smga bukib birlashtring	-

## **2.2. Harakat imkoniyati cheklangan bolalar reabilitatsion kiyimi uchun andazalar komplektini ishlab chiqish**

Detallar andazalarining chizmasi ular konstruksiyasini, shakli va o'lchamlarini, ishlov berish va bichishdagi texnik shartlarini ifodalaydigan texnik hujjatdir. Andazalarning chizmasi buyumni tuzuvchi barcha detallarga, konstruktorlik hujjatlarning yagona sistemasi talablariga muvofiq tayyorlanadi. Kiyim detallari andazalarining chizmasi konstruksiyaning model xususiyatlari kiritilgan texnik chizma asosida tavsiya qilingan materiallar xususiyatlari haqidagi va ularga texnologik ishlov berish usullari to'g'risidagi ma'lumotlar yordamida tuziladi. Andazalar chizmasi quyidagi ketma - ketlikda bajariladi:

- konstruktsiya chizmasi batafsil tekshiriladi;
- chizmaga gazlamaning kirishuvchanligi bilan bog'liq aniqliklar kiritiladi; detallar chizmasining nusxalari boshqa qog'ozga tushiriladi;
- asosiy detallar andazalarining ishchi chizmasi quriladi;
- hosila va yordamchi andazalarning ishchi chizmalari quriladi;
- ishlab chiqarishda foydalanishga mo'ljallangan andazalar chizmasidan andazalar shablonlari tayyorlanadi.

Asosiy, hosila, etalon andazalarda, ishchi andazalarda detallarni bichish va ularga texnologik ishlov berishga oid texnik talablar to'g'risida ma'lumot belgilari qo'yiladi.

Original, etalon va ishchi andazalar asosiy detallarining birida buyum komplektini tuzuvchi barcha andazalarning ro'yxati — detallar spetsifikatsiyasi keltiriladi. Andazalarda quyidagi belgilar ko'rsatiladi:

- tanda ipining yo'nalishi;
- tanda ipining yo'nalishida yo'l qo'yilgan og'ish chiziqlari;
- tarmoq standartlariga binoan detallar uloqlarining yo'l qo'yilgan joyi va kengligi;
- detallarni biriktirishda ishlatiladigan nazorat kertiklari.

### **2.2.1-Jadval.**

#### **Andozalardagi chok haqlari**

<b>Detal va qirqimlar nomi</b>	<b>Chok haqi nomi va qiymati,sm</b>							<b>Izox</b>
	<b>Biriktirma chok</b>	<b>Mag'iz chok</b>	<b>Buklash- qayirishga</b>	<b>Qirqishga</b>	<b>Kirishtirish va ishlov</b>	<b>Bezak chok</b>		
<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>7</b>	<b>8</b>	<b>9</b>	
<b>Kombinzon</b>								

.	<b>Old bo'lak</b>							
	yoqa o'mizi	7				0.1		
	yelka qirqimi	10						
	yeng o'mizi	10						
	yon qirqim	10						
	bel qirqim	10						
.	old o'rta chiziq	7						
.	<b>Ort bo'lak</b>							
.	yoqa o'mizi	7						
.	yelka qirqimi	10						

	yeng o'mizi yon qirqim bel qirqim ort o'rta chiziq	10 10 10						buklov
.	<b>Yeng</b> yeng qiyalamasi old qirqim yeng uchi qirqimi	10 10 20						
.	<b>Ribana yoqa</b> yoqa o'mizi o'rtra chiziq qirqim yoqa uchi	7 7						buklov
.	<b>Shlyofka</b> O'rta qirqim pastki qirqim yuqori qirqim	7 7						buklov
.	<b>Kombinzon</b> <b>pastki qismi</b> <b>old bo'lak</b> bel qirqim yon qirqim odm qirqim qadam qirqim pocha qirqim	10 10 10 10 10						

	<b>Kombinzon</b> <b>pastki qismi</b> <b>ort bo'lak</b> bel qirqim yon qirqim qirqim qadam qirqim pocha qirqim	10 10 10 10 10					
.	<b>Qoplama detal</b> <b>old bo'lak</b> yuqori qirqim yon qirqim pastki qirqim		25 10 10				
.	<b>Qoplama detal</b> <b>ort bo'lak</b> yuqori qirqim yon qirqim pastki qirqim		25 10 20				
0.	<b>Cho'ntak</b> <b>qopqog'i</b> Pastki qirqim Tashqi qirqim		6 7		0.1		
1.	<b>Cho'ntak qopi</b> Yuqori qirqim yon qirqim Pasrki qirqim	20 7 7					
2	<b>Braslet</b> Yuqori qirqim yon qirqim	7 7					

	Pasrki qirqim O'rta qirqim	7						buklov
3	<b>Ribana pocha</b> O'rta qirqim Pastki qirqim Yon qirqim	10 10						Buklov
4	<b>Ort bo'lak</b> <b>cho'ntak</b> <b>qopqog'i</b> Pastki qirqim Tashqi qirqim	7 6						
5	<b>Ort bo'lak</b> <b>cho'ntak qopi</b> Yuqori qirqim yon qirqim Pasrki qirqim	20 7 7						
6	<b>Adip</b> O'rta qirqim Bo'yin o'mizi qirqim Yelka qirqim Taqshqi qirqim	7 10 7						buklov
7	<b>Bo'yin o'mizi</b> <b>mag'zi</b> O'miz qirqim Yelka qirqim Tashqi qirqim O'rta qirqim	7 10 7 7						

8	<b>Icki detal</b>							
	O'rta qirqim							buklov
	Yuqori qirqim	7						
	Yon qirqim	7						
	Pastki qirqim	7						

## 2.2.2-Jadval.

### Andozalarda nazorat kertiklar qo'yish joylarining ro'yhati

	<b>Detallar va qirqimlar nomi</b>	<b>Kertiklar joylanishi</b>
	<b>2</b>	<b>3</b>
<b>Harakati cheklangan bolalar kombinzioni</b>		
1	Old bo'lak O'rta qirqim yon qirqim yeng o'mizi qirqim	Ko'krak chiziqda bel chiziqda
2	Ort bo'lak yon qirqim	bel chiziqda
3	Yeng yeng qiyalamasi	yelka nuqtasida
4	Yoqa yoqa o'mizi	o'rta chiziqda
5	Old pastki bo'lak Yon qirqim Qadam qirqim	Bo'ksa chizig'ida Tizza chizig'ida
6	Ort pastki bo'lak Yon qirqim Qadam qirqim	Bo'ksa chizig'ida Tizza chizig'ida
7	Adip O'rta qirqim	Ko'krak chiziq, bel chiziq

### 2.2.3-Jadval.

#### Andozalarda tanda ipi yo'nalishi

<b>№</b>	<b>Detallar nomi</b>	<b>Tanda ipining yo'nalishi</b>	<b>Tanda ipining yo'l qo'yilgan og'ishi, %</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>
<b>Harakati cheklangan bolalar kombinzioni</b>			
	Old bo'lak	Old o'tar chiziqqa parallel	2%
	Pastki qism old bo'lak	Tizza chizig'ga perpendikulyar	2%
	Ort bo'lak	Bel chizig'iga perpendikulyar	2%
	Pastki qism ort bo'lak	Tizza chizig'ga perpendikulyar	2%
	yeng	Yeng uchiga perpendikulyar	2%
	Qoplama cho'ntak	Cho'ntak yon qirqimga parallel	2%
	Cho'ntak qopqog'i	Cho'ntak qopqog'i pastki qirqimga perpendikulyar	2%
	Qoplama cho'ntak ort bo'lak	Cho'ntak yon qirqimga parallel	2%
	Ort bo'lak cho'ntak qopqpg'i	Cho'ntak qopqog'i pastki qirqimga perpendikulyar	2%
	Shim old bo'lak qoplama detali	Pocha chizig'iga perpendikulyar	2%
	Shim ort bo'lak qoplama detali	Pocha chizig'iga perpendikulyar	2%
	Yeng uchi tutgich	Tutgich yon qirqimiga parallel	2%
	Shim manjeti	Yon qirqimga parallel	2%
	Bo'yin o'mizi uchun ribana	O'rta chiziqqa parallel	0%

	Pocha uchun ribana	O'rta chiziqqa parallel	0%
	Adip	O'rta chiziqqa parallel	2%
	Bo'yin o'mizi mag'zi		0 %
	Ichki belvog'	O'rta chiziqqa parallel	2%

## 2.2.4-Jadval.

### Detallar spetsifikatsiyasi

№	Detallar nomi	Detal kodining belgisi	Detallar soni		Detallar maydoni, sm <sup>2</sup>
			andozada	bichiqda	
1	2	3	4	5	6
<b>Avra matosi</b>					
1.	Old bo'lak yuqori qismi	01	1	2	1357,04
2.	Old bo'lak shim qism	02	1	2	2479,5
3.	Ort bo'lak yuqori qismi	03	1	1	13,7
4.	Ort bo'lak shim qism	04	1	2	2880,7
5.	Yeng	05	1	2	2544,3
6.	Qoplama cho'ntak old bo'lak	06	1	6	979,68
7.	Cho'ntak qopqog'i	07	1	12	752,6
8.	Qoplama cho'ntak ort bo'lak	08	1	2	653,1
9.	Ort bo'lak cho'ntak qopqpg'i	09	1	4	501,6
10.	Shim old bo'lak qoplama detal	10	1	2	831,04
11.	Shim ort bo'lak qoplama detali	11	1	2	955,5
12.	Yeng uchi tutgich	12	1	4	200
13	Yeng uchi brasleti	15	1	2	890

14	Adip	16	1	2	804,2
15	Bo'yin o'mizi mag'zi	17	1	1	171,96
16	Ichki belvog'	18	1	buklov	725,2
	<b>JAMI</b>				<b>18479,8</b>
17	Shim pocha ribana	13	1	2	988,8
18	Bo'yin o'mizi uchun ribana	14	1	1	250,9
	<b>JAMI</b>				<b>1239,7</b>

## 2.2.4-Jadval.

### Yangi model detallari yoyilmasida andozalararo chiqitlarning hisobi

Umumiy norma	11	17
Model xususiyatiga qo'shimcha	2	2
Yangi model detallari Yoyilmasiga oid andozalararo chiqitlarning jamlangan miqdori ( $B_h$ )	13	19

Yoyilmani bajarishdan avval uning dastlabki uzunligi qo'yidagicha hisoblanadi:

$$1) L_p = H_{onp} / III_p = 21241 / 150 = 141,6 \text{ sm}$$

$$2) L_p = H_{onp} / III_p = 1530,5 / 110 = 14 \text{ sm}$$

Bu erda:  $H_{onp}$  - bo'rlamaning dastlabki normasi;

$III_p$  – gazlamaning eni, m

Bo'rlamaga sarflanadigan materialning dastlabki normasi qo'yidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$1) H_{onp} = (F_{\pi} * 100) / 100 - B_h = 18479,8 * 100 / (100 - 13) = 21241 \text{ sm}^2$$

$$2) H_{onp} = (F_{\pi} * 100) / 100 - B_h = 1239,7 * 100 / (100 - 19) = 1530,5 \text{ sm}^2$$

Bu erda:  $F_{\pi}$  - andozalar yuzasi,  $\text{m}^2$

$B_h$  – andozalar orasidagi chiqitlar, normativ miqdori

Andazalararo chiqitlar foizi qo'yidagicha xisoblanadi:

$$1) B_{\phi} = (H_{onp} - F_{\pi}) * 100 / H_{onp} = (21241 - 18479,8) / 21241 * 100 = 13,2 \%$$

$$2) B_{\phi} = (H_{onp} - F_{\pi}) * 100 / H_{onp} = (1530,5 - 1239,7) / 1530,5 * 100 = 19,5 \%$$

Bu erda:  $H_{\text{об}}$ - bo'rlamaning xaqiqiy normasi,  $\text{sm}^2$

### Yoyilma xarakteristikasi

Buyumning nomi – Harakat imkoniyati cheklangan bolalar reabilitatsion kombinezoni;

Razmer, bo'y, to'lalik guruxi – 116-60-60

Gazlama fakturasi – sarja

Yoyilmaning eni – 150 sm


To'shama turi – yalang qavat

Yoyilma turi – yuzasi yuqoriga

Andazalararo xaqiqiy chiqitlar – 13,2 %

Yoyilmaning xaqiqiy yuzasi – 21241  $\text{sm}^2$





#### 4.3. Reabilitatsion kiyim andazalarini ishlab chiqish



2019-7-11 10:17

DL 001.19																															
<i>Kombinzon hosila andozalar</i>																															
